



FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 йил «28» январь

26-11-157-Q/22

Қўштепа туман ҳокимлиги

Tumanda 2022-yil hosili uchun asosiy maydonlarga kartoshka joylashtirish, 2023-yil hosili uchun urug‘lik kartoshka zaxirasini yaratish hamda aholini kartoshkaga bo‘lgan talabini kafolatli ta‘minlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2021 yilning 20 dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida *“o‘sib borayotgan aholiga sifatli, yetarli miqdorda va barqaror narxlarda oziq-ovqat mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berish, bozorlarda narx-navoning barqarorligini saqlash hamda eksport salohiyatini oshirish, importni qisqartirish barcha raxbarlar oldidagi eng muhim masala ekanligini hamda har bir shahar-tuman hokimlariga 2022-yilda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan aholini kafolatli ta‘minlash bo‘yicha muhim yo‘nalishlarda”* bir qator topshiriqlar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4704-sonli qarori ijrosi hamda videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlardan kelib chiqib, doimiy istiqomat qiluvchi aholini hamda yil davomida tashrif buyuruvchi fuqarolarga yillik me‘yor bo‘yicha talab etiladigan oziq-ovqat mahsulotlari aniq hisob-kitob qilinib, muhim turdagi mahsulotlar, hususan kartoshka bilan kafolatli ta‘minlash, 2023-yil hosili uchun urug‘lik kartoshka zaxirasini yaratish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-maydagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4704-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin

2. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Fermer, dexqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, tuman Irrigatsiya bo‘limi, ilg‘or fermer xo‘jaliklari va agroklasterning 2022-yil hosili uchun kartoshka ekini joylashtirish va yetishtirish bo‘yicha takliflari maqullansin.

3. Tumanda 2022-yil hosili uchun asosiy maydonlarga kartoshkani navlar va avlodlar bo‘yicha joylashtirish va mahsulot yetishtirishning maqsadli ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. 2022-yil hosili uchun asosiy maydonlarga kartoshka ekishga yer tayyorlash, ekish, yuqori avlodli, sertifikatlangan urug‘lik kartoshka yetkazib berish, kartoshka ekilgan maydonlarda agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish va yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirib olish ishlarini muvofiqlashtirish ishchi guruxi tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (E.Qodirov), Fermer, dexqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari tuman kengashi (M.Yuldashev), tuman Irrigatsiya bo‘limi (A.Raximov), “Bog‘dorchilik va issiqhona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi”ni xududiy loyiha ofisi, ATB “Agrobank” tuman filiali (A.Akramov), “Fergana Global Textile” MChJ paxta-to‘qimachilik klasteri (M.Razaqov):

bir kun muddatda asosiy maydonlarga ekish uchun talab etiladigan yuqori avlodli, sertifikatlangan urug‘lik kartoshkani yetkazib berish bo‘yicha horijiy yoki mahalliy korxonalar o‘rtasida shartnomalarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

uch kun muddatda urug‘lik kartoshka sotib olish uchun talab etiladigan mablag‘lar uchun belgilangan tartibda kredit mablag‘lari ajratishni ta‘minlash (hamda **5-fevralgacha** asosiy maydonlarga ekish uchun talab etiladigan urug‘lik kartoshka zaxirasini to‘liq yaratish chorasini ko‘rish;

bir hafta muddatda xududlarni tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, Respublika Sabzavotchilik va kartoshkachilik ilmiy tatqiqod instituti mutaxassis olimlarini taklif etgan holda kartoshka ekish muddatlari, yuqori avlodi urug‘lik kartoshka navlari, ekish sxemasi, talab etiladigan moddiy resurslar, kartoshka yetishtirish agrotexnikasi bo‘yicha o‘quv seminar tashkil etishni ta‘minlasinlar.

6. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (E.Qodirov), “Bog‘dorchilik va issiqhona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi”ni xududiy loyiha ofisi hodimlariga:

2022-yil hosili uchun asosiy maydonlarga ekish uchun talab etiladigan urug‘lik

kartoshka sertifikatini, sifatini hamda ekish mavsumi davomida bitta maydonga bitta avlodli urug‘lik kartoshka navini ekishni nazorat qilish;

2022-yil asosiy maydonlarga kartoshka ekishni sifati, to‘liq kontur ekishni tashkil etish hamda kunlik ekish ustidan monitoring yuritish topshirilsin.

7. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (M.Po‘latov) belgilangan asosiy maydonlarga kartoshka navlarining joylashtirilishi va ekilishi ustidan doimiy monitoring o‘rnatsin hamda yer va resurslaridan oqilona foydalanilishi, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materillari va boshqa moddiy-texnik resurslarning paxta xomashyosi yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklariga birlashtirilgan klaster korxonalaridan tomonidan uzuluksiz yetkazib berilishi bo‘yicha tuman va viloyat hokimligiga har kuni ahborot kiritib borsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i E.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



I.V. Novikov